



**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR QURDOSH
QAHRAMONOVNING 70 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN
"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING
DOLZARB MASALALARI"**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Filologiya fanlari doktori, professor Qurdosh

Qahramonovning

70 yilligiga bag‘ishlangan

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB
MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

Toshkent - 2024

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

Filologiya fanlari doktori, professor

Qurdoch Qahramonovning

70 yilligiga bag‘ishlangan

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB
MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

materiallari

Toshkent – 2024

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

UO‘K

KBK

“O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. [Matn]. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2024. - 413 bet.

Ushbu to‘plamga filologiya fanlari doktori, professor Qurdoş Qahramonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida o‘tkazilayotgan “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari kiritilgan. To‘plamda Qurdoş Qahramonovning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy, ilmiy-omabop maqolalar, shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligining dolzarb masalalari, adabiy tanqid, zamonaviy adabiy jarayon, o‘zbek va jahon adabiyotining qiyosiy tadqiqi, zamonaviy ta‘lim va pedagogikaga doir ilmiy maqolalar o‘rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahrir hay‘ati:

B.Karimov – f.f.d., prof., I.Yoqubov – f.f.d., prof., I.Azimov – f.f.d., dotsent,
M.Omonova – f.f.f.d.(PhD), dotsent., M.O‘razbayeva – f.f.f.d.(PhD), dotsent.

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

M.O‘razbayeva, M.Omonova, G.Atabayeva, N.Pardayeva, D.Qalandarova,
H.Rajabova

Taqrizchilar:

I.Yakubov – filologiya fanlari doktori, dotsent
X.Hamroqulova – filologiya fanlari doktori, dotsent

To‘plam Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti ilmiy kengashining 2024-yil 29-martdagi 8-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TANQIDCHINING TERAN NIGOHI

Umida Rasulova,

Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti professori

Tanqid maydonida xolis baho ila badiiyat namunalarini saralash dushvor. Munaqqid ijodkorning tafakkur olamini his etibgina qolmay, uning falsafiy-estetik qarashlarini uqib olishga intiladi. Bolalar adabiyoti namunalarini sinchiklab o'rganib, unga xos taraqqiyot tamoyilini belgilash tanqidchi mas'uliyatini orttiradi. Qurdosh Qahramonovning "Adabiy tanqid va o'zbek bolalar adabiyoti" monografiyasida nazm, nasrga mansub asarlar poetikasidagi muhim jihatlarga ahamiyat beriladi. Xususan, XX asr bolalar poeziyasidagi ikki xususiyat: folklor va mumtoz adabiyotdan ijodiy ilhomlanish, jahon va qardosh xalqlar an'anasining ta'siri belgilanadi. Munaqqid: "...bolalar adabiyotining o'ziga xosligi ijodkor maqsadining badiiy aks ettirilishida, muallifning ijtimoiy, siyosiy, estetik qarashlari bilan bolalar nuqtayi nazari, dunyoqarashi, voqelikka bo'lgan munosabatlari -bir so'z bilan aytganda bolalik olamining birikib, o'zaro uyg'unlashib ketishidadir"-deya mulohaza bildiradi.(45-bet).

Tanqidchi X.Egamov. R.Xo'jayeva. B.Imomovlarning adabiy portretlari mazmun-mohiyati, yutuq-kamchiliklari xususida mulohaza bildiradi. Bolalar adabiyotining mavzular ko'lami, obrazlar tizimi muayyan asarlar misolida tahlilga tortiladi. Bolalar adabiyoti tanqidchiligidan shakllanish davri borasidagi qarashlarda ijtimoiy voqelik, urush va undan keyingi holatlarning bola qismatiga ta'siri qay tarzda kechgani kuzatiladi. Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Quddus Muhammadiy asarlarida bola ruhiyatini tiniq tasvirlash, uning hissiyotlarini jonli, tabiiy ifodalashga sazovor bo'layotgani eslatiladi. Bolalar adabiyotida sag'ir bola, ota-ona mehridan mosuvo avlod fojiasini tasvirlash ikki yo'nalish: qardosh o'lkalardan kelgan va o'z yurtida muruvvatga tashna obrazlar qismati muqoyasasida teranlashadi. Asarlarda hayotdagi qiyinchiliklar, sinoatlar yoshlarni irodali, bardoshli bo'lishga chorlashi, jamiyatdagi o'rnini topishga turtki berishi ayonlashadi. Keyingi davrda mehnatsevarlik, birodarlik tushunchalarini targ'ib qilish, bunyodkorlik ishiga safarbarlik ifodasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xudoyberdi To'xtaboyev asarida kishi tiynatidgi zakiylik, quvlik, faollik, tirishqoqlik fazilatiga e'tibor beriladi. Baxt va baxtsizlik tushunchasi oila, maktabdagi muhit, maslakka erishishda sirli, qiziqarli voqealarni tiniq tasvirlash asnosida singdirilgani oydinlashadi.

Badiiy yaratilgan xalq hayotidagi ma'rifiy, axloqiy ahamiyati, o'rni, salmog'i katta. Xalqning ongu tafakkurini o'zgartirish, ularni ma'naviy boylik bilan

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tanishtirishda olimning mas’uliyati, vazifasi ortib boradi. U umumadabiyotdagi nafosatni his etib, iste’dodni qadrlab, so‘z zalvorini teran anglab, shu zavq, taassurotni kitobxonga yuqtira olsa, natijaga erishiladi. Shundagina adabiyotshunoslik ilmiy-estetik hodisa sifatida istiqlol davrida yaratilayotgan adabiyotning taraqqiyotiga yanada samaraliroq ta’sir ko’rsatadi.

Munaqqidning: “Adabiy tanqidning muhim o‘ziga xos tomonlaridan biri, faqat konkret asarlarnigina tahlil qilib, uning yutuq va kamchiliklarini ko’rsatib qo‘ya qolmasdan, balki shu asar bahonasida hayot haqida, hayotning yetakchi hoyalari haqida fikrlarini, ularga o‘z munosabatini bildirishda ham namoyon bo‘ladi”-degan mulohazasi ahamiyatga molik.(90-b)

Tanqidchi tanlagan tahlil usullari va uslublarining rang-barangligi muhim ahamiyatga molik. Zero, tanqidga oid asarning ta’sirchanlik darajasi va o‘qishligi aslida xuddi shu usul va uslub jozibasiga bog‘liq. Adabiy tanqid tajribasida badiiy tahlilning sotsiologik tadqiqot, asar matnini detallashtirib qiyosiy o‘rganish shakllari uchraydi. Badiiy asar tahliliga yangicha munosabatda bo‘lish, ijodkor qarashidagi nozik o‘rinlarni, so‘z ostidagi ma’no qatlamlarini o‘zlashtirib borish asl mohiyatni tushunish imkonini beradi. Ijodkor anglatmoqchi bo‘lgan hodisani munaqqid kashf etib, tushunib borsa, maqsadga erishiladi. Badiiy asarni baholashda munaqqid tajribali nigohi va dadil mulohazasi shoir yoki yozuvchining qarashlari ohorliligi, mantiqiy asoslanganligi, hayotni badiiy tadqiq etishda komponentlarni qanday bog‘laganligini sharhlab boradi.

Tanqidchi obrazli fikrlashi kerak, lekin obrazli fikrlash ilmiy fikrlashga bo‘ysunishi va bu tabiiy kechishi shart. Bunda tanqididagi obrazlilikni adabiyotdagi obrazlilik tushunchasiga tenglashtirmaslik, badiiy tafakkurni ilmiy tafakkurdan yuqori qo‘ymaslik lozim. Adabiy-tanqidiy maqolada ilmiylik, aniqlik, teranlikka rioya etilishi kitobxon malakasini, uquvini oshirib boradi.

Qurdoosh Qahramonov asarlarida jarayon davomiyligi, an’ana barhayotligi turli davr san’atkorlarining falsafiy, estetik qarashini uyg‘unlashtirishda ko‘zga tashlanadi. Olim har bir masala negiziga urg‘u berib, genezisini puxta o‘rganadi. Tanqid ilmi, shakllanishi, yangilanish tamoyillari doim mutaxassislar tomonidan ziyraklik bilan kuzatilgan. Adabiy oqim, ularga mansub asarni baholash me’yori, ijodkorga munosabat nozik masala. Tanqidchi o‘zbek va dunyo tanqididagi asosiy yo‘nalishlar mohiyatini anglab, ularga munosabat bildirishga, jarayondagi yangilikni baholashga muvaffaq bo‘ladi.

Tanqidchi badiiy adabiyot zamiridagi milliy an’analarning shaxs ma’naviyatiga ta’sirini asoslab, olam va odam uyg‘unligidagi asrorni anglatishga e’tiborni qaratadi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

U ijodkorning milliy g‘urur, e‘tiqod tushunchalarini sharq islom tafakkuri uyg‘unligida badiiy idrok etayotganini tahlillar asnosida sharhlab boradi.

Qurdoosh Qahramonov ijodkor siyratidagi nafosat, abadiyat tuyg‘ularini kitobxonga yetkazishga muvaffaq bo‘ladi. Mustaqil dunyoqarash, boy tafakkur, yuksak intellekt sohibi ijodkor shaxsiyatini keng aspektda o‘rganishga ahamiyat qaratadi. Uning erkin ijod qilishi, xolis baho berishi, so‘z sohirlari iste‘dodini qadrlashi adabiyotshunoslik ilmini yanada rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. –T.: 45-b.
2. Umida R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
3. Rasulova U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

| “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari | | |
|--|--|-----------|
| № | Paper Title | Page № |
| ADABIYOTSHUNOS QURDOSH QAHRAMONOV IJODIGA BIR NAZAR | | |
| 1. | QUTLOV O‘RNIDA <i>Abdig‘affor Kirgizbayev</i> | 6-7 |
| 2. | TOZA BULOQLAR <i>Abdusaid Ko‘chimov</i> | 8-21 |
| 3. | SARHISOB <i>Qozoqboy Yo‘ldoshev, Islomjon Yoqubov</i> | 22-41 |
| 4. | QURDOSH QAHRAMONOV HAQIDA IKKI OG‘IZ SO‘Z <i>Boqijon To‘xliyev</i> | 42-47 |
| 5. | QURDOSH AKANING IBRATI <i>Bahodir Karimov</i> | 48-50 |
| 6. | QO‘RDOSHIM QURDOSH QAHRAMONOV! <i>Rahmatulla Barakayev</i> | 51-53 |
| 7. | ZUKKO TANQIDSHUNOS <i>Abdulla Ulug‘ov</i> | 54-62 |
| 8. | TANQIDCHINING TERAN NIGOHI <i>Umida Rasulova</i> | 63-65 |
| 9. | KAMTARIN VA QALBI DARYO ADABIYOTSHUNOS OLIM <i>Azimidin Nasirov, Dilafrō‘z Jabborova</i> | 66-70 |
| 10. | ISTIQLOL DAVRI ADABIY TANQIDCHILIGINING O‘RGANILISHI (Q.Qahramonov ijodi misolida) <i>Shoira Axmedova</i> | 71-74 |
| 11. | MUNAQQID VA ADABIY TANQIDCHILIK MUAMMOLARI <i>Normat Yuldashev</i> | 75-79 |
| 12. | QURDOSH QAHRAMONOV HANGOMALARI <i>Ergash Ochilov</i> | 80-87 |
| 13. | QURDOSH AKAGA <i>Dilshod Rajab</i> | 88 |
| 14. | ADABIY TANQID TALQINIGA DOIR <i>Aliboy Qahramonov Yolgoshovich</i> | 89-91 |
| 15. | USTOZ IBRATI <i>Feruza Burxanova</i> | 92-96 |
| 16. | QURDOSH QAHRAMONOV – IBRATLI USTOZ <i>Gulasal Kazakova</i> | 97-99 |
| O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA XALQ OG‘ZAKI IJODINING DOLZARB MUAMMOLARI | | |
| 17. | XONDAMIR VA UNING IJODIDA NAVOIY SHAXSIYATINING ULUG‘LANISHI <i>Ibrohimjon Yo‘ldoshev</i> | 100-105 |